

Uzbekistan Airways'dan Navro'z va Ramazon Hayiti munosabati bilan chegirma

2026 17 Mart

Uzbekistan Airways 2026-yil 17-martdan 23-martgacha Navro'z va Ramazon hayitlari munosabati bilan respublika ichidagi HY yo'nalishlarida e'lon qilingan biznes va ekonom klassdagi barcha individual tariflarga 15% gacha chegirma taqdim etilishini ma'lum qiladi.

1. Shartlar:

Sotuv muddati - 2026-yil 17 - 23-mart (shu kuni ham);

Tashish davri - 2026-yil 20 - 23-mart (shu kuni ham);

2. Chegirma faqat Uzbekistan Airways Ajning o'z aviaqatnovlariga qo'llaniladi, "Uzbekistan Helicopters" MCHJ (HY1001-1100) va "Silk Avia" aviaqatnovlariga tatbiq etilmaydi;

3. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

- kattalar uchun - biznes va ekonom klass individual tariflarining 15 foizigacha;

- salonda joy egallagan 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun - bolalar chegirmasi (chegirma kodi - PTT) qo'llanilgan holda biznes va ekonom-klassning e'lon qilingan tarifidan 36 foiz;

- 2 yoshgacha bo'lgan va salonda joy egallamaydigan bolalar uchun ushbu chegirma tatbiq etilmaydi;

4. Qaytarish/qayta bronlash/qayta rasmiylashtirishda tarifga taqdim etilgan chegirma qaytarish/qayta rasmiylashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi, bolalar uchun - belgilangan tartibda (25% chegirma qo'llanilgan holda) undiriladi. Qisman foydalanilgan aviachiptani qaytarish summasini hisoblash uchun chegirma qo'llanilmagan holda foydalanilgan aviauchastkadagi tarif chegirib tashlanadi;

5. Chegirma bilan rasmiylashtirilgan to'liq foydalanilmagan aviachiptalar aksiya davridan tashqari qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirmalarsiz tarifning to'liq darajasigacha qo'shish zarur. Yo'lovchining ismi, familiyasi va pasport ma'lumotlariga o'zgartirishlar kiritish texnologiyasi doirasida aviachiptalarni qayta rasmiylashtirishda, shuningdek, to'plangan ballar uchun xizmat ko'rsatish sinfini Z gacha oshirish istisno hisoblanadi.
6. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 2026-yil 20-martdan 23-martgacha (shu kuni ham) qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;
7. Chegirma bilan rasmiylashtirilgan qisman foydalanilgan aviachiptalar 2026-yil 24-martdan boshlab aviaqatnovlarga qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirma + open date aksiyasi davrida tushmagan 2-segmentga qo'llanilmaydi;
8. Chegirma bilan rasmiylashtirilgan aviachiptalarni qayta rasmiylashtirish/qayta bronlash va qaytarish qo'lda amalga oshiriladi;
9. Chegirma faqat chegirma taqdim etiladigan davrga to'g'ri keladigan uchastka uchun qo'llaniladi;
10. Chegirma qo'llaniladigan yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar chegirma tatbiq etilmaydigan yo'nalishlar bilan kombinatsiyalangan taqdirda tashishni rasmiylashtirishni turli aviachiptalar bilan amalga oshirish zarur.
11. Chegirma bilan aviakompaniyaning veb-saytida (UZS/USD/RUB uchun), O'zbekiston Respublikasi hududida ("Uzbekistan airways sales" filiali va uning agentlari tomonidan) sotishga ruxsat beriladi;
12. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
13. Chegirma AOW tarifiga, shuningdek, guruhli bronlash uchun qo'llanilmaydi.

Eslatma: Chegirma faqat tarifga taalluqli. Soliqlar va yig'imlar qo'shimcha ravishda to'lanadi.